



THE IMAGE OF LOVE IN THE WORKS OF ABDULLA ORIPOV AND SHAKESPEARE

Botirova Raikhona Abdurofikovna¹

Karshi State University

KEYWORDS

Abdulla Oripov,
Shakespeare,
sonet,
love,
friendship,
lyricism,
philosophy,
feeling.

ABSTRACT

There are themes in literature that are considered timeless, and so far no poet has been able to pass this up without hesitation. This is the undisputed object of love. There are such poets and writers in Uzbek and world literature that when it comes to love and affection, quotes from these creators are involuntarily repeated on our lips. This article will focus on the embodiment of love in the works of world poets Shakespeare and Abdulla Oripov.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6493665

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Karshi State University, Karshi, UZB (rayxonabotirova964@gmail.com)

ОБРАЗ ЛЮБВИ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА И ШЕКСПИРА

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Абдулла Орипов,
Шекспир,
сонет,
любовь,
дружба,
лирика,
философичность,
чувство

АННОТАЦИЯ

В литературе есть темы, которые считаются вечными, и до сих пор ни один поэт не мог пройти мимо этого, не колеблясь. Это бесспорно тема любви. В узбекской и мировой литературе есть такие поэты и писатели, что, когда речь идёт о любви, на наших устах невольно повторяются цитаты этих творцов. В этой статье речь идёт о воплощении любви в творчестве мировых поэтов Шекспира и Абдуллы Орипова.

ABDULLA ORIPOV VA SHEKSPIR IJODIDA MUHABBAT TASVIRI

KALIT SO‘ZLAR:

Abdulla Oripov,
Shekspir,
sonet,
muhabbat,
do‘stlik,
lirika,
falsaviylik,
tuyg‘u

ANNOTATSIYA

Adabiyotning barhayot hisoblanadigan mavzulari borki, shu paytga qadar birorta shoir bu to‘g‘rida qalam tebratmasdan o‘tib ketolmagan. Bu – shubhasiz muhabbat mavzusidir. O‘zbek va jahon adabiyotida shunday shoir va yozuvchilar borki, sevgi va muhabbat haqida so‘z ketganda lablarimizda beixtiyor o‘sha ijodkorlarning misralari takrorlanadi. Ushbu maqolada jahon shoirlari Abdulla Oripov va Shekspir ijodida muhabbat timsoli haqida so‘z yuritiladi.

1. KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Bizga ma’lumki, ishq, sevgi va muhabbat tasviri barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Ammo bir-biriga o‘xshash ohanglarda kuylaydigan shoirlarni har doim ham uchratavermaymiz. Ayniqsa turli davr va makonda yashab o‘tgan ijodkorlar orasida. Bizningcha, Abdulla Oripov va Shekspir lirikasidagi muhabbat, do‘stlik singari timsollar tasviri bir-biriga o‘xshashligi bilan ajralib turadi. O‘zbek shoiri Abdulla Oripovning “Birinch muhabbatim” “Eslash”, “Sevgisiz odam”, “Chuvaladi o‘ylarim sensiz” “Yo‘lim boshlar ketarman bir kun” kabi she’rlari, jahon adabiyoti lirikasidan Shekspirning mashhur sonetlari. Bu ijod na’munalaridan bahramand bo‘lgan kishi muhabbatning ayricha tasviri, rangi va iforini tuyadi, Odam ato va Momo havodan meros tuyg‘uning asl ko‘rkini ko‘rganday, his qilganday bo‘ladi.

2. METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Chin tuyg‘ular tashqi go‘zallikka qarab emas, balki botiniy hislardan ildiz oladi. Shekspirning sonetlarida ham hashamdor, go‘zal aslzoda xonimning o‘rnini bug‘doyrang qishloq ayoli egallaydi.

Nafosatga baho berilgan chog‘da,

Chiroyli sanalmas edi qora rang.

Bungacha an'anaviy sonet janrida ma'shuqa barcha qusurlardan holi, ilohiy yuksaklikda tasvirlangan bo'lsa, endi oddiy gunohkor banda ham, go'zal va xayoliy sifatlarga ega bo'lmasa-da sevilishga sazovor bo'lishi mumkinligi aks etgan. Bu Shekspir sonetlarining hayotiyli, real obraz va o'xshatishlarga boyligining belgisi sifatida ko'rinadi. Abdulla Oripov ijodida ham shunday fikrlarni uchratishimiz mumkin. Bunday fikrlar bejirim o'xshatish vositasida berilgan:

“Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy”,
Xalqning bu maqoli rostdir hoynahoy.
O'zliging pesh qilib, izzat izlama,
Quduq tubidan ham ko'rinadi oy.

Abdulla Oripov she'riyati boshqa bir shoir ijodida ko'rilmagan tashbeh va istioralarga boy. U inson qalbining hali hech bir ijodkor yetib bora olmagan kengliklarigacha kirib bordi. Ilk bora sevgiga “yorilmagan yaraday” o'xshatishini berdi, “yolg'iz Ollohim mening” deya murojaat qildi, a'zasiz va mozorsiz “sevgi o'limi” dan kuyundi. Shoir ijodida sevgiga berilgan bu kabi murojaat va o'xshatishlarni ko'plab uchratamiz. Umuman, Abdulla Oripov she'rlarining har bir misrasi muhabbat va ishq bilan yo'g'rilgan deyish mumkin.

Shekspir va Abdulla Oripov ijodining asosiy qismini muhabbat lirikasi tashkil qiladi. Bu lirika shunisi bilan e'tiborliki, ikkala shoir ham misralarni bevosita his qilgan, ko'nglidan kechirgan tuyg'ular vositasida beradi.

Shekspir sonetlarida o'zgacha ruh va ohang sezilib turadi. Adabiyotshunos olimlar shoir sonetlarini boshqa muallif ijod na'munalaridan osongina farqlab olish mumkinligini ta'kidlaydilar. Uning ishq-muhabbat tasviriga bag'ishlangan sonetlarida sharqona donishmandlik va falsafiylik sezilib turadi:

Go'zallik go'zaldir yuz bor, agarda
Bag'rida haqiqat esa oshkor.
Atirgul so'limdir, yana har lahza
Taralib turuvchi xushbo'yi ham bor.

Ushbu misralar uyg'onish davri vakilining buyuk mutafakkir bobomiz Navoiy bilan hammaslak, fikrdosh ekanligiga guvohlik berayotgandek:

Nukta su yanglig' eritur toshni
Topsa haqiqat o'tidin choshni.

Abdulla Oripovning “Otello” she'ridan olingan quyidagi parcha she'r muallifining bu ikki buyuk dahoga izdosh ekanligini ko'rsatayotgandek:

Shunda sen kelasan ko'zingni yoshlab:
–Qayda ishq, qayda rashk, qaydadir ular?!
Shu sho'rlik zaminni ketmangiz tashlab
Muqaddas tuyg'ular oliy tuyg'ular.

Haqiqiy ijodning barhayotligi siri nimada? Sharqda azaldan botiniy tushunchalar zohiridan ustun qo'yilgan. Shuning uchun ham Sharq donishmanddir. Muqaddas tuyg'ularni qalbida gard qo'ndirmay billurdek asrab misralarga to'kolgan shoir ijodigina dillardan

dillarga, og'izdan og'izga ko'chib yura oladi. Shekspir va Abdulla Oripov ijodida muhabbat timsoli ortiqcha hayqiriq va hashamlarsiz, behuda nola-yu afg'onlarsiz qalamga olinadi. Sonet va she'rlarni mutolaa qilar ekansiz unda tuyg'ular va falsafiy oqim qo'shilib ketganligining guvohi bo'lasiz:

Ko'zim bilan qalbim talashar nuqul,
Ki go'zal qiyofang yashaydi kimda?
Ko'zim deydi: mening qarog'imda ul,
Yuragim deydiki, yashaydi menda...

Jonim, suvratingni ko'zlarim oldi,
Sevgi, muhabbating yurakda qoldi...

Ko'z qalbning oynasidir. Bu oynada yor husni jilvalanadi. Ishq shunday bir qudratki, kishi qalbiga bildirmasdan, sezdirmasdan kirib keladi. Uning qachon tashrif buyurganidan ba'zan ong va ruh ham bexabar qoladi va jismning turli a'zolarini so'roqqa tutadi. Shu jihatdan Shekspirning yuqoridagi misralari Navoiy va Abdulla Oripov misralariga hamohang bo'lib keladi:

Biroq ko'z suratkash anjomi emas,
Oddiy some emas qulog'imiz ham
Nozik mehroblarga tegishli ular.

Ko'rganin yetkazgay Qalb degan joyga,
Tafakkurga aytgay eshitganlarin
Bunday izdihomda uhlab bo'lurmu?

Abdulla Oripovning yuqoridagi uchligida kishi ozgina mudroq holda bo'lsa ham ishq Qalbg'a o'rnashib olib, unda o'z hukmronligini yurgizishi aytilmoqda. Uchala shoir ijodidagi bunday hamohanglik ularning bir-biriga ruhan yaqinligi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Navoiyda esa ruh jonni qiynayotgan kasallikning sababini qidiradi:

Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?"
Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati.

G'azal so'ngida ayb ko'zda ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u sho'xi mahvash tal'atidan bahramand bo'lgan:

Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q erdi manga ham ixtiyor,-
Ki ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati".

Yaratilgandan beri Shekspir ijodi o'quvchilarni to'lqinlantirib, hayratga solib keladi. Shekspir dahosi "dunyo mo'jizalaridan biri" deya e'tirof etilishi bejizga emas. Bugungi kunda ham dramaturg-shoirning sonetlari kitobxonlar e'tibor markazida turibdi. Umuman, shoir sonetlarida sharqning ta'siri va sharqona ohanglar sezilib turadi. Bu jihat she'rlarda asosan, yorga murojaat qilinishi, yorning go'zal jamoli tasviri-yu, oshiqning ma'shuqa hajrida chekkan iztiroblari o'rin olgan. Navoiy, Jomiy, Hofiz va Rumiy g'azallari markazida ham ma'shuqa obrazi turadi. "Sonetlar lingvopoetikasi o'ziga xosdir. Ular lirik she'riyat shablonli metaforalar, so'zamonlik va mantiqsiz aql o'yinlari bilan to'ldirilgan davrda

yozilgan. Shekspir adabiy anjumanlarning bu zanjirlarini uzib tashlaydi, eski shakllarni yangi tarkib bilan to'ldiradi, o'zining o'ziga xos, beqiyos asarlarini yaratadi". Shekspir sonetlarini bugungi kunda o'zbek o'quvchisi Maqsud Shayxzoda, Yusuf Shomansur, Jamol Kamol tarjimasida o'qimoqda. Shekspir fikricha olamni o'z mehvarida tutib turguvchi kuch sevgi-ishqdir. U dunyodagi barcha ne'matlarning buyugidir. Faqatgina ishq kishini baxt-saodatga yetaklaydi:

Odamlarda har xil havas, ishqibozlik bor,
Ammo har kim uchun faqat bittasi afzal.
Men bir narsa bilan bo'ldim g'oyat baxtiyor,
Faqat o'sha taqdirimni qila oldi hal.

Sening sevging qimmatroqdir javohirlardan,
Qadrliroq erur shohlar toj-u taxtidan.

Abdulla Oripovning "Otello" she'rida shoirning ishq haqidagi o'z ideali tajassumlanadi. U butun qalb ato etilgan, jism butunlay o'zidan kechib fido qilingan muhabbatni kuylaydi. Ze'ro shoir ishq-muhabbatsiz kechirilgan umrni bir ermak deb biladi:

Mayli hayot bor-yo'g'ingni tashla yelkamga.
Romeoday o'limga ham tayyorman u kez,
Qotillik ham qilay, mayli, Otello monand.
Faqat sen kel, yuragimda armon bo'lgan his,
Sensiz hayot puch bir narsa, ermak, omonat.

Ishq-muhabbatning bunday talqinini mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham ko'ramiz:

Maqsad budur, hayotdin bu,
Bil xilqati koinotdin bu.

Abdulla Oripov va Shekspir ijodida muhabbat timsoli va tuyg'ular sof, samimiy, ishonarli holda beriladi. Shuning uchun ham bu tuyg'ular beixtiyor o'quvchi qalbiga ko'chib o'tadi. Pishiq ishlangan she'riy texnika, tashbeh va o'xshatishlarni o'z o'rnida ishlata bilish ijod na'munasiga baho berishda qo'yiladigan talablarning hammasi emas. She'riy asarda tuyg'u va kechinmalar samimiy bo'lmas ekan, qalblardan joy egallay olmaydi, o'z manziliga yetib bormaydi. Shuning uchun tuyg'ular samimiy va rost bo'lishi lozim. "Samimiylik she'riyatning tomiridagi qon" [1, C-65],- deya bejiz aytilmagan.

Chinakam shoirlar o'z salaflari izidan borib, an'anaga ko'ra ijod qilish barobarida poetik ijodda novatorlik qiladilar, o'zlarigacha yaratilgan she'riyatni yangi obraz va shakllar bilan boyitadilar. Shekspirgacha yoz yuzi yoz fasliga o'xshatilmagan edi:

Chehrang o'xsharmikan yozning kuniga,
Yo'q, sening mayinlik va husning oshiq...

She'riyatning rivoj topishi, baland pog'onalariga ko'tarilishi poetik obrazlardagi yangilanishlarga ham bog'liq. Yuksak iste'dod sohibi Abdulla Oripov ijodida ham bunday hodisalarga ko'p duch kelishimiz mumkin:

Bir marta ko'rganman,

Faqat bir marta.

Oyning o'rog'iga yulduz qo'nganin.

Tabiatda yuqoridagi holat juda kam uchraydi. Bunday obrazlar bir umrga she'riyat ixlosmandlari yodida qoladi.

Faqat muhabbatga topingin ey, qalb,
Sen mehr ko'rgaysan o'shal quyoshdan.
Axir bobolar ham demishlar qadim
Muhabbat yaratgan dunyoni boshdan.

Ushbu she'rda barcha olamlar yaratilishda muhabbatdan ibtido olganligi aytilgan. Abdulla Oripovning bu kabi she'rlarida ko'plab topilmalarni ko'rishimiz mumkin. Shoirning muhabbatni aziz, o'lmas, muqaddas tuyg'u sifatida qalamga olgan she'rlari juda ko'p. "Birinchi muhabbatim", "Gar muhabbatning", "Seni ko'ray dedim", "Agar sensiz", "Layli va Majnun", "Muhabbat", "Nega meni sevmading", "Ayriliq qo'shig'i", "Sevgidan so'ylarding", "Ilk sevgi" kabi she'rlarida tuyg'ularning shohanshoi bo'lgan muhabbatning xilma-xil tasvirini uchratishimiz mumkin.

3. TADQIQOT NATIJALARI.

Ushbu maqolada shoirlarning kishi hayotida do'st va do'stlikning o'рни haqidagi mulohazalaridagi o'xshashliklar yoritilgan. Shoirlar ta'rif-u tavsif beradigan shunday axloqiy-falsafiy mavzular borki, bu borada ham ikki ijodkor g'oya va fikrlari kesishib ketadi. Bu – do'stlik mavzusidir. Shoir Abdulla Oripov do'stlik inson hayot-mamotini hal qiluvchi qudratga, bir jismda qo'nim topgan ikki qalbg'a o'xshatadi.

Do'stning qadri baland ikki dunyoda,
Topilmas o'zga zot undan ziyoda.
Bir xoji quvonchdan yig'lab turardi
Do'stini uchratib Makkatilloda.

Darhaqiqat, kishi o'ziga sodiq do'st topsa, yuragining hech kimga ishonolmagan sir-u sinoatlarini bo'lisha oladigan bir qalbg'a ega bo'lsa ikki dunyo saodatiga erishganday quvonadi. Do'stlik insonga rohat, xotirjamlik, quvonch olib keladi. Sadoqatli hamdami bor ekan, inson o'zini baxtiyor sanashi mumkin:

Jami odamlardan yetsa-yu xatar,
Yoningda do'st qolsa hatto bir nafar,
Bilgilki, dunyoda yolg'iz emassan,
Davringni suraver, to ro'zi Mahshar!

Abdulla Oripov she'rlari singari Shekspir sonetlarida ham do'stlik falsafiy-hayotiy mohiyat kasb etgan. Ko'pincha, do'stga murojaat, uning uchun qayg'urish o'rin olgan.

Umringni qizg'onib g'afolatga botma,
Befarzand o'tmoqlik qismatin totma.

Ushbu sonetning yaratilishi tarixiga nazar tashlasak, bu paytda Yevropada turli yuqumli kasallik va o'latlar tarqalib, aholi qirilib ketishi ulkan muammoga aylanib qolgan edi. Shu sababli Shekspir ham do'stini zurriyot qoldirishga undaydi. Boshqa sonetlarda esa ruhiy qiynoqlar, azoblar vaqtidagi do'stlikning ilohiy kuchi va qudrati bayon etilgan:

Qachonkim hayolga erk berib, fursat,
Kechgan kunlarimni nogoh eslasam
Bag'rimda tiralur eski jarohat
Alamlar qo'zg'alur yana yangidan...

Ammo seni har gal o'ylasam, do'stim,
G'amlarim tarqaydi, topaman taskin...

Shekspirning sonetlarining kattagina qismi hayotda ismi adabiyotshunoslar uchun noma'lum bo'lgan do'sti uchun atalgan.

4. XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, Shekspir va Abdulla Oripov lirikasidagi muhabbat va do'stlik singari sof insoniy tuyg'ular talqini o'zaro mushrataklikni tashkil etadi. Ijodkorlarga xos hayot falsafasining ajralmas qismini muhabbatga e'tiqod tashkil qiladi. Jahon adabiyotida bir xil ohangda kuylaydigan ikkita shoirni toppish qiyin. Bu holni Abdulla Oripov va Shekspirning ijodiy-ruhiy uyg'unligi sifatida baholash mumkin. Har ikkala shoir ijodida ham novatorlik, timsollar tasvirini berishdagi betakrorlik ko'zga yaqqol tashlanadi. Bunday muhabbat tasviri bugungi shiddatli hamda murakkab zamon kishisining qalbida ilohiy tuyg'ularning qaytadan bo'y ko'rsatishiga turtki bo'lishi shubhasizdir.

5. IQTIBOSLAR.

[1]. Матёқуб қўшжонов, Сувон Мели. Абдулла Орипов – Тошкент.: “Маънавият” 2000. 65-бет (Matyoqub Qo'shjonov, Suvon Meli. Abdulla Oripov–Toshkent.: “Ma'naviyat” 2000. 65-page)

6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 7-жилд – Тошкент.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи 2013
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 8-жилд – Тошкент.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи 2016
3. www.kh-davron.uz. Uilyam Shekspir. Sonetlar. Yusuf Shomansur tarjimalari